

Og'ilning tomi har safar loysuvoq qilinganida, gartak xarxasha qilib bo'lsa-da, tepaga chiqib olardim. Bungacha deyarli yetib bormas edi asli. Kenja bo'lganim sababli bunday istaklarim so'zsiz amalgalashdi.

Og'il ustida kichkina qishlog'imizni - pastqam uylaru og'il-bostirmalar, tuproq-chang ko'chalaru sim to'siqli hoy-a-hovlilarni bir butun ko'rib, huzur qillardim. Hamma bilan gurunglashgim kelaverardi.

- Hasan aka, anovi, Qizilkarvon kattama, Mehnatkash?

- Mehnatkash.

- Ham ularda daraxt ko'p-a. Nima-a bizning qishloqda daraxt kam?

- Suv yo'q-da.

- Hayla, quduq bor-ku.

- Quduqdan faqat ichamiz, u-bu ekishga oqar suv kerak.

Akamlar nimagadir kam gapirib ishlashar, menin esa gurunglashgim kelardi.

- O'tkir, sening otang kattama, menin otam?

- Mening otam katta.

- Aldayapsan. Mening otam katta. Jili - quyon. Sening otangniki-chi?

- Bilmadim. Lekin, menin otamning moshini bor.

- E-e, akamlar moshin oladi, nasib bo'sa. Kecha gaplashdi. Shu, O'tkir menin otam zo'r deydi. Yo-o, menin otam zo'r! Hammani "siz" deydi. "Nimaga unday?" - desam, Hasan akam "zo'rlar shunday bo'ladi", dedi. Bir marta jahli chiqqanda "soydan nari"dagagi Xolbek akani "sen" deganakan, xafa bo'lib uyidagilarga aytib boribdi. Gulsum momo aytib keldi. Sherli akam uni "TASS" muxbiri deydi. U nimayakan? Hasan akamdan so'rayman-da. Lekin moshinimiz yo'q.

Nasib bo'sa, katta bo'sam, boy bo'laman. Toshkentda yashayman. Moshinim bilan qishloqqa kesam, otamni mindirib olib, hammanikiga bir-bir kirib chiqaman. Otamni yaxshi ko'raman-da. "Otagni yaxshi ko'rasanmi, enangni?" - deb so'rashsa, "ikkoviniyam" deb javob beraman. Akamlar o'rgatgan. Lekin, Suyun bova bilan Xo'shay aka so'rasha, negadir "otamni", deb to'g'risini aytaman-ay. Shu, Suyun bova kimnikiga borsa, birdan yonboshlab yotib oladi. Nima bersa qaytarmay, yeb-ichib oladi. Xo'shay aka nima gap aystsang, ma'qullaydi. Bolalar bilan ham, kattalar bilan ham birday gaplashaveradi.

- Hasan aka, nima-a O'tkirlar bizardi "soydan nari" deydi?

- Ashirap - soydan beri yoqda yashaymiz-da.

- Hayla, ular soydan narida-ku. "Soydan nari" ular-da. Shunday devdim, urishib qoldik. Ham desa, "soydan nari" - "soydan beri" futbol o'ynovdik, ular uttirib[1] qo'ydi-da.

"Soydan nari"dan Toshkentda ikkita bola o'qiydi. Bazardanam.

"Soydan nari"da to'rtta moshin bor. Bazarda uchta. Ulardan maktabda malim yo'q, bizardan ikkita. Bu yil ularda ikkita to'y bo'ldi, bizarda bitta. O'tkiriym to'y qildi.

- O'tkir, sening enangni oti kim?

- Enamning otima, Kampir.

- E-e, unday ot yo'q-ku.

- Hey, otam shunday deydi-ku.

"Soydan nari"da bittayam zo'r ot yo'q. Hammasi: O'tkir, Po'lat, Bolt, Qorjov... Bazarda zo'r otlar: Ibrohim. Mahmarayim, Yusuf. Ibrohim, Yusuf - payg'ambar bo'lgan, Hasan akam aytuvdi. Nurali akam magnitofondan Sherliining kassetasini olib, Yulduzni qo'ygan edi, Hasan akam urishdi. Sherli zo'r, deydi. Nimaga, desam, katta bo'sang bilasan, deydi. Qishlog'imizga bir marta Toshkentdan artist kelgan. U payti men tug'ilmaganman. Sening to'yingga Toshkentdan artist keladi, deydi akamlar, ee... Akamlar Toshkentda o'qiydi. Hamma artistlarni ko'rgan, gaplashganam. Qishloqda boshqa hech kim ko'rmagan. Televizorgayam chiquvdi, lekin men ko'rmay qolganman-da, suvgan ketuvdim. Shu, uyimiz quduqdan uzoqda. Asfaldanam. O'tkir nima deydi, uyimiz asfaltga yaqin bo'lsa-da, deydi. "Nimaga desam", "avariyalarni tomosha qillardim", deydi, ee.

- O'tkir, nechta qo'ylarin bor?

- Bilmayman.

- Sanashni bilmaysan-da, shuytib bilmaysan.

- Ee, bilaman, lekin aystsam, otam urishadi-da.

- Nimaga?

- Rabim aka so'raganda Bekzod akam aytuvdi, otam urishdi, to'g'risini aytma, ko'z tegadi, deb.

Loy ham tayyor bo'b qoldi. Endi piyova ichamiz. Navro'zda osh qiluvdi. Zokir akam qib bergen. Po'lat aka boy bo'lsa ham hech osh qilmaydi. Lekin ullanining to'y zo'r bo'lgan, deydi. Ko'p aroq bergen. Menam boy bo'lsam, Navro'zda qishloqqa osh qilib beraman. Lekin aroq bermayman, otam ichmaydi, namoz o'qiydi. Aroq yomon, deydi.

Shu, hamsoyamizning shepiri yo'q-da. Uyining tomimi ham suvaydi. Har yili. Nasib bo'sa, boy bo'sam, shepir oberardim.

\* \* \*

Olti aka-uka tashqarida yotamiz. Men o'rtada. Yulduzlarga qarab yotaman. Eng yaxshi ko'rganim - yetti yulduz. "Yetti yulduz - yetan yulduz, yettingacha sanasa, savob emish". Bir nafasda yetti marta aytish kerak ekan...

Qishda zo'r bo'lardi. Yotishdan oldin pechkani bir gurillatamiz. Soviguncha uxmlaymiz. Gohida uyqu kelmay qoladi. Shunda...

- Kelinglar-ay, bir o'zin o'ynaymiz. Uyning ichida bor narsalardan, bosh harfiminan oxirgi harfi, nechchi harfligini aytib, topish. Kim topsa, shu aytib, davom ettiradi. Bo'ptimi?

- Bo'pti (bizar).

- Bol'masa, boshladim. Bosh harfi "p", oxiri "a", besh harf.

- Pechka (Nurali akam).

- Ha, ukkoor (Hasan akam).

- Hmm, bosh harfi "k", oxiri "a" besh...

- Kalla (men).

- Hi, yo'q (Nurali akam).

- Ko'rpa (Sherli akam).

- To'g'ri. Ayt.

- This is not registered version of TotalDocConverter harf.

- ...
- ...
- ...
- Topolmadik. O'zing ayt (Hasan akam).
- ...

- Aytay'ay (Yusuf akam).
- Topolmadilaringma?.. Yorug'lik!
- Ee, hozir qorong'i-ku (men).
- Yo, hayla, pechkada cho'g' bor.
- Sen, bunday aytma-da (Nurali akam).

- Qanday?
- Qo'lga ushlassa bo'g'ichidan ayt-da (Yusuf akam).

Shuytib, uxbab qolardik. Ba'zan savolga tutaman:

- Hasan aka, qishlog'imizdi nima-a Qizilkarvon deb qo'ygan?

- SSSR payti qo'yilgan-da, avval Ingichka bo'lgan,

- Ingichka? Nima-a Ingichka degan?

- Bilmadim.

- Kim biladi?

- Menam bovalardan so'rab ko'rurdum, hech qaysi bilmadi.

- Ashirapniyam hech kim bilmayma?

- Ha.

- Budrachni-chi?

- Uniyam.

- Hech kim bilmasa, nima-a buytib qo'yg'an?:

Shu, Toshkentga bir borishim keragiydi-da. Hasan akam yangi yilda kelganda, nasib bo'sa, Navro'zda, devdi. Navro'zda kelganda, nasib bo'sa, bug'doydi o'rib olaylik, keyin, dedi. O'zi kanikulga keb qo'ydi. Endi qachon boraman, desam, nasib bo'sa, no'xatni terib olaylik, keyin, deydi. "Nasib bo'sa"si qachon bo'layakan?

- Hasan aka, he-ey osmonda yulduzlar bor-ku, hayla, shularning eng kattasi qaysi?

- Quyosh.

- Quyosh - quyosh-ku, yulduzamas.

- ...

- Hasan aka, osmonning o-oxirida nima bor?

- ...

- Xudo osmondayo-o?

- Ha, endi uxlaymiz, Elmurod.

- Charchadingizma?

- Ha.

- Menam katta bo'sam, sizday loy qoriymano-o?

- Yo'q. Seni loy qorimaydigan qilamiz.

- Xo-o.

\* \* \*

Xayolan jinjak oralab borar ekanman, bolalik orzuim ushalgan kun esimga tushdi. Eslasam, har gal xijolat tortaman. Oqsoydan do'xtirlar kelib, qandaydir kasallikkha qarshi dori tarqatib chiqishlari kerak ekan. Ilmiy bo'lim mudiri sinfimizga keldi-da, hammaga bir-bir qarab, meni tanladi.

Yo'lboschilik qilib, do'xtirlar bilan, ular aslida hamshiralar edi, kechgacha butun qishloqni aylanib chiqdik. Nihoyati charchagan esam-da, xursand edim...

Uyimiz doimo gavjum edi. Eshigimiz hech qo'shirilmasdi. Bir-birini ancha vaqt ko'rmagan qarindoshlarimiz biznikida ko'rishishardi.

Keyin biz ulg'aydik. Odamlar ham biznikiga kam keladigan bo'lib qolishdi. Bu menga hecham yoqmasdi. Torig'ib ketardim.

Keyin tegirmon qurdik.

- O'tkir, sening oting nima-a O'tkir?

- Bilmasam. Seniki-chi? Elmurod - nima degani?

- Shunday - Elmurod. Otam Murodulla deydi.

- Hey?

- Shunday deydi-da. Jur-ay-y, Eshmon to'baga dovur borib kelaylik.

- Hey?

- O'zimiz, shunday.

- Piyodama?

- Ha.

- Kettik.

B†' Yutqazib